

# MENTORSHIP PROGRAMMES, TRAINING WORKSHOPS

# NAMANGAN STATE UNIVERSITY

**At Namangan State University, the United Nations Sustainable Development Program is conducting systematic work on 16 SDGs. In particular, he is working on the issue of reducing poverty among the population both at the university and locally and regionally. In 2022, Namangan State University organized financial and socially sustainable start-up projects among the population, organized various mentoring and training seminars, covering more than 4,000 students and young people:**

**1.** 2021-2022 o'quv yilida Namangan shahri Chorsu MFYdagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish maqsadida universitet hududida joylashgan "Media markaz" da "Kompyuter savodxonligi" hamda "Kompyuter grafikasi" to'garaklari tashkil etilgan. To'garakga **50 nafar** yoshlar qamrab olingan.

**Link:** https://t.me/namdu_matematika_fakulteti/2878

**2.** 2021-2022 o'quv yilida Namangan Davlat Universiteti Fizika fakulteti qoshida Star Up loyihalar va ilmiy g'oyalarni qo'llab quvvatlash, mahalliy shartnomalarni amalga oshirish uchun "INNOVATSION CLUB" tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunga kulubning **30 nafar** a'zosi mavjud. Mahalliy buyurtmalardan 54 000 000 so'm, innovatsion tanlovlardan 81 000 000 so'm pul mablag'i qo'lga kiritilgan.

**Link:** https://t.me/namdupressklub

**Link:** https://www.youtube.com/channel/UC166FwRj0Cj6gQf97b22qbA

**3.** 2022-yilda Namangan shahri Sharq tongi MFY dagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llan-quvvtalash maqsadida, "Ko'chma shaxmat klubi" tashkil etildi. Ushbu klubga ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining **25 nafari** biriktirilgan bo'lib, grafik asosida ushbu to'garakda o'yinlar tashkil etib boriladi.

Link: https://t.me/namdu_tabiiy_fanlar/3414

**4.** 2022-yilda Namangan shahri Sharq tongi MFY dagi oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mahalla yoshlari volontyorlari" ko'ngilli guruhi tashkil etilgan bo'lib ushbu guruhga **30 nafar** yoshlar qamrab olingan hamda ular doimiy ravishda homiylar asosida mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy rag'batlantirib boradilar.

**Link:** https://t.me/namdu_tabiiy_fanlar/2654

**5.** 2021-2022-o'quv yilida Tibbiyot kafedrasi professor – o'qituvchilari va talabalar tomonidan "Yosh anatom" to'garagi tashkil etilgan bo'lib, unga **25 nafat** tibbiyot yo'nalishi talabalari jalb etilgan. To'garak ishlari doirasida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19-yanvardagi Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-92 sonli qaror ijrosi bo'yicha, Namangan shahridagi "Nurafshon" MFY da profilaktik tibbiy ko'rik o'tkazildi.

**Link:** https://t.me/namdu309/8318

**6.** Iqtisodiyot fakulteti Mehmonxona xoʻjaligini tashkil etish boshqarish taʼlim yoʻnalishi talabalarida Dunyo boʻylab telekanalida "Ishbor" start ap loyihasi boʻyicha **20 nafar** talabalarning kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish va ish faoliyatida noanʼaniviy vaziyatlardan chiqish amaliyotini shakllantirish

**Link:** https://t.me/c/1126015704/5347

**7.** 2021-2022 o'quv yilida Namangan shahri Nurafshon MFYdagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish maqsadida MFY hududida joylashgan 11-maktabda "Tarix" hamda "Huquqshunoslik" to'garaklari tashkil etilgan. To'garakga **40 nafar** yoshlar qamrab olingan.

**Link:** https://t.me/namdu309/13759

**8.** Biotexnologiya kafedrasi hamkorigida 2022-yilning 1-dekabridan 3-dekabriga qadar Oʻzbekiston Respublikasida "Maktab ta'lim tizimida rus tili: qiynchiliklar va oʻsish nuqtalari" mavzusida Xalqaro forumi boʻlib oʻtdi. Forumda **100 dan ortiq** ishtirokchilarni qamrab oldi.

**Link:** https://t.me/namdu309/14591

**9.** Namangan davlat universiteti ingliz tili oʻqitish metodikasi kafedrasi oʻqituvchisi N.Rashidova Uychi tumanidagi 35-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi bilan hamkorlikda seminar mashgʻulotlari va tadbirlar tashkil etdi. Seminar mashg'ulotlarida **100 nafar** o'quvchilar ishtirok etdi.

**Link:** https://t.me/namdu309/10316

**10.** Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan, Pedagogika-psixologiya fakulteti Ijtimoiy ish yoʻnalishi talabalari tashabbusi va Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi Namangan viloyat boʻlimi hamda XDP bilan hamkorlikda "Inson qadri uchun qalblardan qalblarga yoʻl" shiori ostida ijtimoiy xayriya loyihasi oʻtkazildi. Hayriya tadbirida **250 dan ortiq** ishtirokchilarni qamrab oldi.

**Link:** https://t.me/namdu309/14672

**11.** Namangan shahridagi 7- umumta'lim maktabida "Ustoz-shogird" tamoyilini amalga oshirish maqsadida Rus adabiyotshunosligi kafedrasi oʻqituvchisi E.Abdulvohidov va magistrant G.Abdullayeva "Kitob - hayot koʻzgusi" mavzusida badiiy-adabiy kecha tashkil qilindi. Unda **50 dan ortiq** maktab oʻquvchilari jahon mumtoz adabiyotining yorqin namoyondalari Alisher Navoiy, Bobur, Aleksandr Sergeevich Pushkin, Anton Pavlovich Chexov asarlaridan parchalar oʻqidilar, saxna koʻrinishlari mahorat bilan ijro etildi. Tadbirda Namangan davlat universiteti Rus adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri E.Akramova, oʻqtuvchilar M.Xayitov, I.Abdullaeva hamda shu maktabda amaliyot oʻtayotgan talabalar ishtirok etdilar.

**Link:** https://t.me/Filologiya5/2451

**12.** Bugun NamDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri M.Sulaymonov boshchiligida kafedra dotsenti K.Abdullayev va kafedra o'qituvchilari B.Ashurov, A.Rohataliyevlar Namangan viloyati Pop tumani Uyg'ursoy qishlog'idagi 2-sonli umumta'lim maktabining o'quvchilari bilan uchrashdi. Uchrashuvda maktab o'quvchilarini Namangan davlat universitetidagi olib borilayotgan islohotlar bilan tanishtirildi. O'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berilib, esdalik sovg'alar topshirildi.

**Link:** https://t.me/Filologiya5/2422

**13.** 2022 yil may oyida Namangan viloyati prokuraturasi hamda Namangan davlat universiteti bilan hamkorlikda "Boshlangʻich taʼlim - kelajak poydevori" tanlovining final bosqichi oʻtkazildi. Bunda Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi talabalari oʻzlarining ilgʻor texnologiyalardan foydalangan holda mualliflik loyihalarini namoyish qilishdi. Tanlovda **250 nafar** talaba ishtirok etgan.

**Link:** https://t.me/namdu309/11178

**14.** 2021/2022-o’quv yilida Namangan shahri Nurafshon mahallasidagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli o’tkazish maqsadida mahalla hududida joylashgan 11-sonli maktabda “Tarix” hamda “Huquqshunoslik” to’garaklari tashkil etildi. To’garak ishtirokchilari sifatida **40 nafar** yoshlar qamrab olingan bo'lib, Yuridik fakulteti professor o'qituvchilari tomonidan belgilangan rejaga ko'ra mashg'ulotlar tashkil etib borilmoqda.

**Link:** https://t.me/namdu309/13759

**15.** Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 22-maktabda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo‘limi, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi, viloyat "Mahalla" xayriya jamoat fondi, tuman hokimligi va Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasi dotsenti Alisher Isoqboyev hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Moziyga qaytib: Buyuk tariximiz va ulug‘ ajdodlarimizga munosib bo‘laylik!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbir “Zahiriddin Muhammad Bobur qadami yetgan joy” hamda “Peshqo‘rg‘on adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzularini qamrab oldi.

**Link:** https://t.me/namdu309/11190

**16.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-96-sonli qarori hamda Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92 sonli qaror ijrosi bo‘yicha mahallalarda yoshlar o‘rtasida ko‘plab madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Namangan shahridagi Yoshlar ijod markazida NamDU Yuridik fakulteti talabalari hamda Namangan shahridagi “Nurafshon” MFYdagi yoshlar ishtirokida “Zakovat intellektual” musobaqasi o'tkazildi. Tadbirda Yuridik fakulteti dekan o‘rinbosari I.Atamirzayev, “Nurafshon” MFY yoshlar yetakchisi M.Nazarovlar ishtirok etdilar.

**Link:** https://t.me/namdu309/8859

**17.** Namangan davlat universiteti maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakultetida talabalar va mahallalarning uyushmagan yoshlarini bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida aykido sport turi bo‘yicha to‘garak samarali faoliyat olib bormoqda. To‘garakka universitet katta o‘qituvchisi N.Qambarov rahbarlik qilmoqda. Mashg‘ulotlarda fakultet bilan hamkorlik qilayotgan “Diyor” mahallasi yoshlari ham faol ishtirok etib kelishmoqda.

**Link:** https://t.me/namdu309/8598

**18.** Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida "Ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar" mavzusida Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada bugungi kundagi eng dolzarb muammolar: Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarish, parantes birliklarning lingvopoetik xususiyatlari; Boshlang'ich sinf o'quvchilarining leksikagrafik kompetentligini oshirishda elektron lug'atlarning roli haqida professorlar tomonidan ma'ruza qilindi va muhokamalar o'tkazildi.

**Link:** https://t.me/namdu309/10451, https://t.me/namdu309/10437

**19.** Universitet va Ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamkorligi: Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini kuchaytiradi.

**Link:** https://t.me/namdupressklub/23

**20.** NamDU Press klubi Uychi tumanida faoliyatini boshladi. Dastavval maktab bitiruvchilar universitetda mavjud ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumot bilan tanishmoqdalar. Fakultetlardan Press klubga tashrif buyurgan malakali professor-o'qituvchilar fakultetlar va ta'lim yo'nalishlari haqida to'liq ma'lumot bermoqdalar.

**Link:** https://t.me/namdupressklub/22, https://t.me/namdu309/10391, https://t.me/namdu309/10392, https://t.me/namdu309/10397

**21.** 2021-2022 o'quv yilida Namangan shahri Baynalminal MFYdagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish maqsadida Namangan shahar 7-sonli umumta'lim maktabi hududida "Kutubhona"da "Qiziqarli ingliz tili" to'garaklari tashkil etilgan. To'garakga **28 nafar** yoshlar qamrab olingan.

**Link:** https://t.me/thebestfaculty/1065

**22.** 2021-2022 oʻquv yilida Namangan shahri Chorsu MFYdagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli oʻtkazish maqsadida Boshlang 'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni oʻqitish metodikasi kafedrasida"Mohir qo'llar to'garagi" tashkil etilgan. Toʻgarak rahbari M.Shermatova talabalarga tikuvchilik sirlarini oʻrgatadi. Tashkil etilgan toʻgarak talabalarni ham ilmli, ham bilimli boʻlishlariga imkon yaratmoqda. Toʻgarakka **30 nafar** yoshlar qamrab olingan.

**Link:** https://t.me/namangantoday